

**YOSHLAR MA'NAVIYATIDA – SHUKUR XOLMIRZAYEVNING IJODI**

**Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li**

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** O'zbek adabiyot gulshanining fidoyi yozuvchisi Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan adiblardan biridir. Uning yuksak badiiy mahorati bilan yaratgan asarlari o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega. U yozgan asarlar oddiy dardning ulug'vor ko'rinishidir. Uning yaratgan qahramonlari oddiy insonlar Vatanga millatga daxli yo'qdek. U ana shu daxlsizlik bilan Vatanga millatga, umuminsoniyatga daxldor bo'lgan dardlarni tasvirlay olgan. Maqolada Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Shukur Xolmirzayev, surxon eli, boysun tog'lari, adabiyotga muhabbat, tabiat.

**KIRISH**

Serqirra ijodkor Shukur Xolmirzayev o'zining roman, hikoya, drama singari janrlardagi o'zining badiiy asarlari bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan. Uning asarlari o'zbek xaqli ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos ahamiyatga ega. Shukur Xolmirzayev naqadar serqirra ijodkor, u yozgan asarlar bugungi kun olimlari tomonidan hanuzgacha o'rganib kelinmoqda. Adibning hikoyalari haqida taniqli o'zbek adabiyoti olimlaridan U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboyev, O.Otaxonov, R.Qo'chqorovlarning maqolalari e'lon qilingan. Shuningdek H. Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti" risolasi, akademik B.Nazarovning "Shukur Xolmirzayev" nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bu tadqiqot va maqolalarda Shukur Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan bo'lsa, uning hikoyachilikdagi mahorati, badiiy so'z san'ati, tasvir uslubi haqida G.N.Tavaldiyeva (2001), Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslar ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borib va yozuvchining hikoyachilikdagi o'ziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosa berganlar. Asosiy qism O'zbek adabiyotining zabardast yozuvchisi Shuku Xolmirzayev 1940 – yilning 24 – martida Surxondaryo viloyatining boysun tumanida tug'ilgan. Bo'lajak yozuvchi 1959-1963–yillarda

Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qiydi. O'qishni tamomlagach „Yosh gvardiya ” jurnalida muharrir sifatida ishlaydi. Keyinchalik esa Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh sifatida ( 1967 – 1969 ) „ Guliston” va „Sharq yulduzi” jurnallarida adabiy xodim, bo'lim mudiri sifatida ( 1969 – 1980 ) ishlab kelgan. Xolmirzayevning dastlabki hikoya va ocherklari 1958 yildan nashr etila boshlagan. Xolmirzayev ijodining ilk davridayoq hikoya bilan bir qatorda qissa janrida ham kalam tebratib, „Oq otli“ (1962), „To'lqinlar“ (1963), „Un sakkizga kirmagan kim bor?“ (1965) qissalarini yaratdi. Bu asarlar 60-yillardagi o'zbek qissalarining eng yaxshi namunalaridan bo'lib qoldi. Yozuvchining shu davrda yozgan hikoyalari keyinchalik „Olis yulduzlar ostida“ (1971), „Hayot abadiy“ (1974), „Og'ir tosh ko'chsa...“ (1980), „Yo'llar, yo'ldoshlar“ (1984), „Bodom qishda gulladi“ (1986), „Tog'larga qor tushdi“ (1987) singari to'plamlaridan o'rin oldi. Xolmirzayevning hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o'ziga xos romantikasi ifodalangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug'ilib o'sgan tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o'zgarishlar o'zining badiiy talqinini topdi. Keyinchalik Boysun va boysunliklar hayoti Xolmirzayev ijodining asosiy mavzusi darajasiga ko'tarilib, yozuvchi ijodida realistik tasvirning ustuvor yo'nalishga aylanishida muhim omil bo'ldi. Xolmirzayev voqelikdagi murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ruhiy olamini kashf eta borgani sayin uning dastlabki hikoya va qissalaridagi romantik pafos endi o'z o'rnini realizmga bo'shatib berdi va yozuvchining o'zbek adabiyotiga „shafqatsiz realizm“ unsurlarini olib kirishiga imkoniyat yaratdi. X. 80—90-yillarda yaratgan asarlarida mazkur davrdagi jamiyat va xalq hayotining chuqur badiiy tahlilini berdi. Xolmirzayev „So'nggi bekat“ (1976), „Qil ko'prik“ (1984), „Yo'lovchi“ (1987), „Olabo'ji“ (1992), „Dinozavr“ (1kitob, 1996) singari romanlarini yozdi. X.ning „So'nggi bekat“, „Yo'lovchi“ va „Olabo'ji“ romanlarida sho'ro jamiyatining 70—80-yillarga kelib ichdan yemirila boshlagani yorqin badiiy obrazlar orqali aks ettirildi. Bu romanlarda ko'tarilgan ijtimoiy masala yozuvchining „Dinozavr“ romanida o'zining yangicha badiiy talqinini topdi. Sho'ro davlatining xalqparvar davlat ekaniga, u olib borgan ichki va tashqi siyosat xalq va mamlakat manfaatiga xizmat qiluvchi siyosat ekaniga astoydil ishongan kishining hayoti va ruhiy olamidagi ziddiyatlar kurashi tasviri mazkur romanning markazida turadi. Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining „bosmachilik harakati“ deb atab kelingan davrini o'rgana boshladi. Yozuvchining „Qil ko'prik“ romani va „Qora kamar“ (1987) pyesasida shu

mavzu o'z ifodasini topdi. Ularda adashgan kishilar fojiasi obrazlarda yorqin gavdalanirilgan. X. pyesasi asosida Abror Hidoyatov nomidagi Yoshlar teatrda sahnalashtirilgan „Qora kamar“ spektakli yosh avlodda tarixiy o'tmishga yangicha yondashish maylining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. Xolmirzayevning o'zbek xotin-qizlarining sho'ro davridagi fojiali taqdiriga bag'ishlangan „Ziyofat“ pyesasi ham Yoshlar teatrda sahnalashtirilgan (1990). „Oq otli“ nomli birinchi qissasi 1962 yilda bosilgan. Ikkinchi asari — „To'lqinlar“ (1963) Abdulla Qahhor tahsiniga sazovor bo'ldi. „O'n sakkizga kirmagan kim bor“ (1964), „Taqdir bashorati“ (1968), „Yo'llar, yo'ldoshlar“ (1973), „Yur, tog'larga ketamiz“ (1976), „Cho'loq turna“ (1978), „Tuproq ko'chalar“ (1978), „Qush tili“ (1982), „Qahramonning so'nggi kunlari“ (1984), „Tog'larga qor tushdi“ (1986), „Abdulla Nabi o'g'lining so'nggi kunlari“ (1983), „Esiz, Eshniyoz!“ (1988), „Bulut to'sgan oy“ (1997) qissalari, „So'nggi bekat“ (1976), „Qil ko'prik“ (1984), „Olabo'ji“ (1991), „Dinozavr“ (1996) kabi romanlari, „Qora kamar“ (1989) nomli dramasi, „Yovvoyi gul“, „Bahor o'tdi“, „Bitiktosh“, „Ozodlik“, „O'zbeklar“, „Hayot abadiy“, „Og'ir tosh ko'chsa“, „Ustoz“, „Ko'k dengiz“, „Tabassum“, „Shudring tushgan bedazor“, „Boychechak ochildi“, „Otning egasi“, „Navro'z, navro'z“ singari o'nlab hikoyalari va boshqa ko'plab asarlari nashr qilingan. 1 Shukur Xolmirzayevning so'nggi yozgan „Dinozavr“ romani shunday fikr bildirgan: „Kuchlilar yengadi, kuchsizlar yengiladi, deyilgan nazariya noto'g'ri! Agar kuchlilar yengish qobiliyatiga ega bo'lganlarida, avvalo dinozavrlar yenggan bo'lardi. Yo'q u o'ladi“ O'sha paytda kuch qudrat egasi bo'lgan sho'ro hukumati ham hozir parchalanib ketgan... Yuqoridagi so'zlardan Shukur Xolmirzayevning naqadar ziyoli ekanligini, uning fikrlari naqadar keskinligini anglash mumkin.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev nafaqat adabiyotda balki hayotda ham o'z o'rniga, dunyo qarashlariga ega bo'lgan haqiqiy shaxs edi. Uning adabiyot ijod va hayot haqidagi fikrlari bugungi kun odamlarini o'ylashga majbur qiladi. U haqiqiy ijodkor edi. U o'z hayotidan ham adabiyotni ustun qo'yolgan shaxs edi. Ha, bunday iroda o'zbek elining farzandi, Shukur Xolmirzayevga xos edi. Uning uchun adabiyot hayot kechirish vositasi emas, balki yashashning betakror shakli edi. U yaratgan asarlarida adabiyotsiz yashashni tasavvur etolmaydigan qahramonlar talqini yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning asarlarini o'qib naqadar adabiyot uning qalbi shu'riga singib ketganini anglash mumkin. Uning asarlarini o'qigan kishi adib tug'ilib o'sgan surxon eli, boysun tog'lariga, bepoyon archazor u dashtliklariga sayohat etadi, u yerdagi ajib ohanglarni, bepoyon manzarani, rang-baranglikni ko'radi. Bularning hammasi Shukur Xolmirzayevning yuragidagi adabiyotga bo'lgan muhabbat ana shu tiriklik „urib turgan“ tabiatning „issiq“ bag'ridan olinganini anglatadi.